

AFG'ON MUAMMOSINI HAL QILISHDA QATAR DIPLOMATIYASINING O'RNI

Davranov Kamron Kahramonovich

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17453008>

Annotatsiya: Ushbu tezisda Qatar Davlatining Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etishdagi vositachilik diplomatiyasi, uning mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o'rni hamda xalqaro miqyosdagi geosiyosiy ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Bugungi global siyosiy muhitda kichik davlatlarning diplomatik salohiyati nafaqat iqtisodiy, balki strategik vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qatar o'zining "yumshoq kuch" siyosati asosida Afg'onistondagi tinchlik jarayonlariga diplomatik, gumanitar va harbiy-logistik yo'nalishlarda faol hissa qo'shgan. Tezisdagi 2013-yilda Dohada Tolibon siyosiy idorasining ochilishi, 2018-yilda AQSH bilan strategik hamkorlik bitimining imzolanishi, 2021-yil Al-Udeyd havo bazasining roli, 2023-yilda Tolibon rahbari bilan bevosita muloqot va 2025-yilda Dohada Afg'oniston-Pokiston o'rtasidagi kelishuv kabi muhim bosqichlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar Qatar diplomatiyasi, Afg'oniston, Pokiston, Doha muzokaralari, Al-Udeyd, yumshoq kuch, mintaqaviy xavfsizlik.

РОЛЬ ДИПЛОМАТИИ КАТАРА В РЕШЕНИИ АФГАНИСТАНСКОЙ ПРОБЛЕМЫ

Давранов Камрон Кахрамонович

Независимый исследователь

Аннотация. В тезисе анализируется посредническая дипломатия Государства Катар в мирном урегулировании афганского конфликта, его роль в системе региональной безопасности и механизмы геополитического влияния на международном уровне. В современных мировых политических условиях дипломатический потенциал малых государств приобретает все большее значение не только как экономический, но и как стратегический инструмент. Катар, опираясь на свою политику «мягкой силы», активно содействовал мирному процессу в Афганистане в дипломатическом, гуманитарном и военно-логистическом направлениях. В диссертации научно анализируются такие важные события, как открытие политического офиса Талибана в Дохе в 2013 году, подписание соглашения о стратегическом партнерстве с США в 2018 году, роль авиабазы Аль-Удейд в 2021 году, прямой диалог с лидером Талибана в 2023 году и афгано-пакистанское соглашение в Дохе в 2025 году.

Ключевые слова: дипломатия Катара, Афганистан, Пакистан, переговоры в Дохе, Аль-Удейд, «мягкая сила», региональная безопасность.

THE ROLE OF QATAR DIPLOMACY IN RESOLVING THE AFGHANISTAN PROBLEM

Davranov Kamron Kahramonovich

Independent researcher

Abstract This thesis analyzes the mediation diplomacy of the State of Qatar in the peaceful resolution of the Afghan conflict, its role in the regional security system, and the mechanisms of geopolitical influence at the international level. In today's global political

environment, the diplomatic potential of small states is gaining importance not only as an economic but also as a strategic tool. Qatar, based on its "soft power" policy, has actively contributed to the peace processes in Afghanistan in diplomatic, humanitarian, and military-logistical directions. The thesis scientifically analyzes important milestones such as the opening of the Taliban political office in Doha in 2013, the signing of the strategic partnership agreement with the United States in 2018, the role of the Al-Udeid air base in 2021, direct dialogue with the Taliban leader in 2023, and the Afghanistan-Pakistan agreement in Doha in 2025.

Keywords Qatari diplomacy, Afghanistan, Pakistan, Doha negotiations, Al-Udeid, soft power, regional security.

KIRISH

Zamonaviy xalqaro siyosiy tizim o'zgaruvchanlik darajasi, manfaatlar to'qnashuvi va kuch markazlarining qayta taqsimlanishi jihatidan so'nggi o'n yilliklarda misli ko'rilmagan murakkab bosqichga kirib bormoqda. Davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbati, energetik xavfsizlik, gumanitar va iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi yangi diplomatik yechimlarni talab qiladi. Shu jarayonda Ko'rfaz arab davlatlari, xususan Qatar Davlati, xalqaro siyosatda faol vositachi va muhim geoiqtisodiy markaz sifatida e'tirof etilmoqda. Qatar bugungi kunda nafaqat dunyodagi eng yirik suyuq tabiiy gaz eksportchisi, balki "yumshoq kuch" (soft power) strategiyasi orqali ham o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Masalan, "Al Jazeera" telekanali orqali Qatar o'zining global axborot makonidagi ta'sirini kengaytirdi. BMT, Arab Ligasi va Islom hamkorlik tashkiloti doirasida vositachilik roli orqali Doha o'zining xalqaro nufuzini oshirdi.

Yaqin Sharq masalalari bo'yicha mutaxassis Mehran Kamrava ta'kidlaganidek, Qatar o'zining "vositachilik diplomatiyasi" orqali xalqaro maydonda "kichik davlat ham katta siyosat yuritishi mumkin" degan yangi diplomatik paradigmani shakllantirdi¹.

Xalqaro maydonda Qatar diplomatiyasining faolligi nafaqat mintaqaviy muammolarda balki Afg'oniston hamda Ukraina kabi murakkab siyosiy masalalarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Dohada joylashgan muzokaralar markazi 2010-yildan buyon turli mintaqalardagi tinchlik jarayonlarida faol vositachilik missiyasini bajarmoqda.

Qatar bosh vaziri o'rinbosari va tashqi ishlar vaziri Shayx Muhammad bin Abdulrahmon Al-Taniy 2024-yil 12-oktabr kuni Nur-Sulton shahrida bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch chora-tadbirlari bo'yicha kengashning oltinchi vazirlar yig'ilishida ishtirok etdi. U o'z nutqida Qatarni "mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ishonchli hamkor" sifatida e'tirof etib, Afg'onistondagi vaziyatga ham alohida to'xtaldi. Shayx Al-Taniy afg'on xalqining orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish mintaqaning barqarorligi uchun muhim omil ekanini ta'kidladi hamda Qatar tinchlik jarayonlariga mezbonlik qilishga doimo tayyorligini bildirdi².

ASOSIY QISM

Bugungi kunda mojarolar deyarli har bir mintaqada mavjud bo'lib, ko'pincha qarama-qarshi tomonlar bir-biri bilan muloqot qilishga tayyor emas. Bunday vaziyatlarda nizolar nafaqat to'qnashuvdagi tomonlarga, balki bevosita ishtirok etmagan, ammo ular bilan bir

¹ Mehran Kamrava. Qatar: Small State, Big Politics. 2023 p-27-43

² Deputy Prime Minister and Minister of Foreign Affairs: Qatar is a Reliable Partner in Achieving Peace in Region. <https://mofa.gov.qa/en/qatar/latest-articles/latest-news/details/1443/03/06/deputy-prime-minister-and-minister-of-foreign-affairs-qatar-is-a-reliable-partner-in-achieving-peace-in-region>

hududda yashovchi aholiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, uchinchi tomonning aralashuvi zarur bo'ladi - u mojaroni tomonlarning o'zaro roziligi asosida hal etishga intiladi.

2021-yil avgust oyida Toliblar qisqa muddat ichida Afg'onistonda hokimiyatni qayta egalladi. Bu voqea nafaqat Afg'oniston ichki siyosatida, balki mintaqaviy geosiyosiy muvozanatda ham tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Harakatning mafkuraviy asosi Deoband maktabi ta'limotlariga tayangan bo'lib, unda islomiy qadriyatlar qat'iy, konservativ qarashda talqin etiladi. Tolibon o'zini "sof islomiy tuzum"ni tiklovchi kuch sifatida ko'rsatib kelmoqda³. Bugungi kunda Tolibon hukumati o'zini "Afg'oniston Islom Amirligi" deb ataydi, ammo xalqaro huquq nuqtayi nazaridan u qonuniy siyosiy sub'yekt sifatida tan olinmagan. Shunga qaramay, Tolibon harakati so'nggi yillarda o'z tashqi siyosatini pragmatik yo'nalishda olib borishga harakat qilmoqda.

"Mintaqadagi asosiy geosiyosiy aktorlar orasida Qatar Tolibon harakatining xalqaro diplomatik maydonga qayta integratsiyalanish jarayonida muhim vositachilik rolini bajargan davlat sifatida ajralib turadi. 2013-yilda Dohada Tolibonning siyosiy idorasining ochilishi Afg'onistondagi urush hali ham davom etayotgan bir paytda ularning diplomatik maydonga kirishini belgilab berdi⁴. Mazkur idora siyosiy masalalarni muvofiqlashtirish, shuningdek xalqaro hamjamiyat, ayniqsa, Qo'shma Shtatlar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish vazifasi bilan shug'ullandi. Bu jarayonni Qatar va Pokiston rasmiylarining faol ishtiroki orqali amalga oshirish muhim yutuqlardan biri bo'ldi. Biroq ushbu ofis ochilganidan bir oy o'tmay yopildi. 9-iyul kuni yuz bergan bu holat idoraning nomi va unda ko'tarilgan bayroq masalasida kelib chiqqan kelishmovchilik bilan bog'liq edi. Dohadagi idorada "Afg'oniston Islom Amirligi" nomli yozuvning aks etishi Kobulda keskin norozilikka sabab bo'ldi. Shundan so'ng AQSh hukumati mazkur plakat va bayroqni olib tashlashni talab qildi, keyinchalik Qatar hukumati ham xuddi shunday pozitsiyani bildirdi.

2018-yilda Qatar va AQSH o'rtasida imzolangan strategik hamkorlik bitimi ikki davlat o'rtasidagi mudofaa va siyosiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Keyinchalik AQSH 2022-yilda Qatarga "NATOga a'zo bo'lmagan asosiy ittifoqchi" maqomini berdi. Ushbu maqom AQSHning yaqin ittifoqchisi sifatida Qatarining rolini huquqiy jihatdan mustahkamladi hamda do'stona aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ayniqsa, ushbu hamkorlik Afg'onistondagi mojaroda o'z samarasini ko'rsatdi.

Qatar va AQSh o'rtasidagi harbiy hamkorlik mintaqaviy xavfsizlik tizimining muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Qatar hududidagi Al-Udeyd havo bazasi AQSHning mintaqadagi eng yirik harbiy inshooti bo'lib, Afg'onistondagi operatsiyalar uchun tayanch punkt vazifasini o'tadi⁵.

Qatar 1990-yillardan buyon Al-Udeyd bazasiga 1 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritgan, 2003-yildan boshlab esa AQSh va koalitsiya operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yana 8 milliard dollardan ortiq mablag' sarflagan. O'z navbatida, AQSh 2003-2011-yillar oralig'ida 457 million dollar miqdorida qo'shimcha qurilish loyihalarini moliyalashtirgan. Mazkur moliyaviy sarmoyalar natijasida Al-Udeyd harbiy bazasi vaqtinchalik ekspeditsion

³ Rashid A. Taliban: The Power of Militant Islam in Afghanistan and Beyond. - Yale University Press, 2021. - 322 p.

⁴ Дмитрий Верхотуров. Открытие офиса Талибана в Катаре - «План Б» в действии. 2013. <https://afghanistan.ru/doc/62628.html>

⁵ Jawhar Farhat. Al Udeid Air Base: The Largest US Military Installation in Middle East. 2024. <https://greydynamics.com/al-udeid-air-base-the-largest-us-military-installation-in-middle-east/>

obyekt maqomidan chiqib, mintaqaviy xavfsizlik tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydigan doimiy strategik infratuzilma darajasiga ko'tarildi. Hozirda u 15 000 nafargacha harbiy xizmatchini joylashtirish imkoniga ega va qo'shimcha harbiy samolyotlar bazasini qabul qilish uchun tayyorlangan⁶.

Al-Udeyd bazasi Afg'onistondagi urush paytida harbiy operatsiyalarni boshqarish va qo'shnlarni ta'minlash markazi bo'lib xizmat qilgan. AQSH 2001-2021-yillar oralig'ida Afg'onistonda olib borgan harbiy amaliyotlari paytida mazkur baza orqali havo hujumlari, qo'shin va yuk tashish, yoqilg'i quyish kabi ta'minot ishlari amalga oshirildi. 2021-yilda AQSH qo'shnlari Afg'onistondan chiqib ketayotgan paytda, Al-Udeyd bazasi evakuatsiya operatsiyalarining asosiy markaziga aylandi. 2021-yil 14-avgust kuni Kobuldan uchgan birinchi evakuatsiya samolyoti aynan shu bazaga qo'ndi. Keyingi 17 kun ichida bu yerga kelgan afg'on fuqarolari soni dastlabki 800 nafardan 57 ming nafargacha yetdi. Eng yuqori davrda bazada bir vaqtning o'zida 17 mingga yaqin odam vaqtincha joylashtirilib, keyingi manzillarga jo'natishga tayyorlangan⁷.

2021-yil avgust oyida Afg'onistondan evakuatsiya qilingan 124 ming kishining 58 ming nafari aynan Qatar orqali uchgan. Al-Udeyd bazasining bunday favqulodda holatda asosiy tayanch markazga aylanishi, uning nafaqat AQSh, balki NATO uchun ham mintaqadagi xavfsizlikda muhim strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Bugungi kunda ham ushbu baza Qo'shma Shtatlarning Yaqin Sharqdagi harbiy siyosatining asosiy tayanchi bo'lib, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va terrorizmga qarshi global operatsiyalarni muvofiqlashtirishda markaziy rol o'ynamoqda.

Qatar nafaqat evakuatsiya jarayonida, balki Afg'oniston ichkarisida insonparvarlik yordamini yetkazishda ham faol ishtirok etdi. Qatar hukumati Turkiya va Tolibonning muvaqqat hukumati bilan hamkorlikda Kobul xalqaro aeroportining ishini tezda tiklashga yordam berdi, bu esa gumanitar yuklar va xavfsiz parvozlarning davom etishini ta'minladi. 2021-yil kuzidan boshlab Qatar Doha va Kobul o'rtasida maxsus havo yo'nalishini yo'lga qo'ydi va shu orqali 700 tonnadan ortiq oziq-ovqat, dori-darmon hamda zarur tibbiy yuklarni to'g'ridan-to'g'ri Afg'onistonga yetkazdi⁸. Qatar Afg'onistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida moliyaviy yordam va rivojlanish dasturlariga ham alohida e'tibor qaratdi. 2021-yil oxiridan 2022-yil boshigacha Qatar hukumati tomonidan Afg'onistonga qariyb 50 million AQSh dollari ajratildi. Ushbu mablag'lar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirildi.

Qatar Tolibonning boshqa davlatlar bilan yuzaga kelgan kelishmovchiliklarini bartaraf etishda ham faol vositachi sifatida ishtirok etmoqda. Xususan, 2023-2025-yillarda Tolibon va Pokiston o'rtasida chegarada keskinlik kuchaygan davrda Qatar nizo tomonlarini muzokaraga va murosaga chaqirdi. 2023-yil may oyida Qatar Bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdurahmon Al-Soniy boshchiligidagi delegatsiya Tolibon rahbari, oliy

⁶ Qatar's Al Udeid Air Base Explained: The Largest US Military Hub in Middle East. <https://gulfmagazine.co/qatars-al-udeid-air-base-largest-us-military-hub/>

⁷ AUAB supports largest NEO airlift in history. <https://www.acc.af.mil/News/Article-Display/Article/2767699/auab-supports-largest-neo-airlift-in-history/>

⁸ Qatar Announces Additional USD 25 Million Pledge to Support Humanitarian Response in Afghanistan. <https://mofa.gov.qa/en/qatar/latest-articles/latest-news/details/1443/08/28/qatar-announces-additional-usd-25-million-pledge-to-support-humanitarian-response-in-afghanistan#>

yetakchi Haybatulloh Oxundzoda bilan maxfiy uchrashuv o'tkazgani haqida Reuters axborot agentligi xabar berdi⁹. Ushbu tarixiy uchrashuv 2023-yil 12-may kuni Afg'onistonning Qandahor shahrida bo'lib o'tgan bo'lib, unda Qatar bosh vaziri bevosita Haybatulloh Oxundzodaga xalqaro hamjamiyatning talab va xavotirlarini yetkazgan.

Qatar tomonidan tashkil etilgan muzokaralar jarayoni Tolibon harakatining oliy rahbariyatini bevosita muloqot formatiga jalb etishga erishgani bilan muhim diplomatik natija sifatida baholanadi. Doha ushbu uchrashuvlar orqali Tolibonni xalqaro hamjamiyat tomonidan ilgari surilayotgan siyosiy va huquqiy talablar tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilishni strategik maqsad sifatida belgilagan.

2025-yilga kelib Qatar Afg'oniston masalasini nafaqat ichki siyosiy muammo, balki mintaqaviy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida ko'rsatib berdi. Bu ayniqsa, 2025-yil 10-18 oktabr kunlari Afg'oniston va Pokiston chegarasida harbiy to'qnashuvlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu ikki davlat o'rtasidagi taranglikni keskin kuchaytirdi. Pokiston tomoni Afg'oniston hududida "Tahrik-i Tolibon Pokiston" (TTP) jangarilariga qarshi zarba berganini, Afg'oniston esa bu harakatni hududiy suverenitetni buzish sifatida baholaganini bildirdi. 19-oktabr kuni "Tolibon" va Islomobod Dohada o't ochishni to'xtatish to'g'risida kelishuvga erishdi. Muzokaralar yakuni bo'yicha e'lon qilingan bayonotda ikki tomon chegarasida barqarorlikni ta'minlash bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgan¹⁰. Ushbu kelishuv Qatar diplomatiyasining mintaqaviy vositachilikdagi rolini yanada mustahkamladi.

XULOSA

Qatar diplomatiyasi bugungi xalqaro tizimda kichik davlatning katta siyosiy ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lishini amalda isbotladi. Uning vositachilik faoliyati siyosiy betaraflik, ishonchli muzokara maydoni yaratish, gumanitar yondashuv va iqtisodiy imkoniyatlarni uyg'unlashtirish tamoyillariga tayanadi. Qatar mojarolarga faqat siyosiy yechim topish emas, balki ularning ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan yondashuvlarni amalga oshirib kelmoqda. Doha tinchlikni iqtisodiy yordam, gumanitar tashabbuslar va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini faollashtirish orqali mustahkamlashga intildi.

Bunday yondashuv Qatarni nafaqat Yaqin Sharq, balki xalqaro miqyosda ham tinchlik muloqotining markaziga aylantirdi. Bugungi kunda Qatar boshqa mintaqalar uchun ham tinchlikni saqlash va ishonch choralari kuchaytirish yo'lida amaliy namuna bo'la oladi. Shu jihatdan, Qatar diplomatiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda murosaga asoslangan, tinchlikni afzal bilgan tashqi siyosatning samarali ifodasi sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mehran Kamrava. Qatar: Small State, Big Politics. 2023 p-27-43
2. Deputy Prime Minister and Minister of Foreign Affairs: Qatar is a Reliable Partner in Achieving Peace in Region. <https://mofa.gov.qa/en/qatar/latest-articles/latest-articles>

⁹ Exclusive: Qatar prime minister, Taliban chief hold secret Afghan talks. <https://www.reuters.com/world/middle-east/qatar-prime-minister-taliban-chief-hold-secret-afghan-talks-source-2023-05>

¹⁰Asif Shahzad, Mohammad Yunus Yawar, Mushtaq Ali. Pakistan and Afghanistan agree to immediate ceasefire after peace talks in Doha. 2025. <https://www.reuters.com/world/asia-pacific/afghanistan-pakistan-hold-peace-talks-doha-after-fierce-fighting-says-afghan-2025-10-18/>

- news/details/1443/03/06/deputy-prime-minister-and-minister-of-foreign-affairs-qatar-is-a-reliable-partner-in-achieving-peace-in-region
3. Rashid A. Taliban: The Power of Militant Islam in Afghanistan and Beyond. - Yale University Press, 2021. - 322 p.
 4. Дмитрий Верхотуров. Открытие офиса Талибана в Катаре – «План Б» в действии. 2013. <https://afghanistan.ru/doc/62628.html>
 5. Jawhar Farhat. Al Udeid Air Base: The Largest US Military Installation in Middle East. 2024. <https://greydynamics.com/al-udeid-air-base-the-largest-us-military-installation-in-middle-east/>
 6. Qatar's Al Udeid Air Base Explained: The Largest US Military Hub in Middle East. <https://gulfmagazine.co/qatars-al-udeid-air-base-largest-us-military-hub/>
 7. AUAB supports largest NEO airlift in history. <https://www.acc.af.mil/News/Article-Display/Article/2767699/auab-supports-largest-neo-airlift-in-history/>
 8. Qatar Announces Additional USD 25 Million Pledge to Support Humanitarian Response in Afghanistan. <https://mofa.gov.qa/en/qatar/latest-articles/latest-news/details/1443/08/28/qatar-announces-additional-usd-25-million-pledge-to-support-humanitarian-response-in-afghanistan#>
 9. Exclusive: Qatar prime minister, Taliban chief hold secret Afghan talks. <https://www.reuters.com/world/middle-east/qatar-prime-minister-taliban-chief-hold-secret-afghan-talks-source-2023-05>
 10. Asif Shahzad, Mohammad Yunus Yawar, Mushtaq Ali. Pakistan and Afghanistan agree to immediate ceasefire after peace talks in Doha. 2025. <https://www.reuters.com/world/asia-pacific/afghanistan-pakistan-hold-peace-talks-doha-after-fierce-fighting-says-afghan-2025-10-18/>